

“2-TUR QANDLI DIABET YURAK YETISHMOVCHILIGI BOLGAN BEMORLARDA KARDIO METABOLIK YALLIG’LANISH MARKERLARI VA LIPID PROFILIDAGI O’ZGARISHLAR”.

Sh.Sh. Muxtarova

“Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Endokrinologiya, bolalar endokrinologiyasi”
kafedrası

B.A. Jabbarbergenova

Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17646145>

ANNOTATSIYA

2-tur qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari xavfli asoratlari yil sayin kuchayib bormoqda. Fibrinogen, umumiy KFK, interleykin-6 va C-reaktiv oqsili kabi ko’rsatkichlar 2-tur qandli diabetda yurak-qon tomir asoratlarini baholashda ahamiyatga ega va Apo A va Apo B eng ishonchli aterogen xavf indeksi hisoblanadi. Shu sababli ushbu laborator tahlillar klinik diagnostika va davolash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit sozlar: Qandli diabet, yurak yetishmovchiligi, glikirlangan gemogloblin, fibrinogen, Umumiy KFK, Interleykin-6, C-reaktiv oqsili

Tadqiqod maqsadi: 2-tur qandli diabet yurak yetishmovchiligi bo’lgan bemorlarda muhim bolgan yurak-qon tomir asoratlari baholashda kardiometabolik yallig’lanish markerlari va lipid transport tiziminng oqsillari va zarrachalarini o’rganish orqali ularning klinik ahamiyatini aniqlash.

Material va usullar: Tadqiqod mobaynida O’zbekiston Respublikasi SSV qoshidagi RIITEM da statsionar davolangan qandli diabet 2-tur bolgan 40 yoshtan 70 yoshgacha 130 ta bemorlar tanlab olindi. HbA1c maqsadli darajalariga erishilishiga bog’liq 2ta guruhga ajratildi 1-guruh $HbA1c \leq 8$ maqsadli darajasi ($n=74$) va 2-guruh $HbA1c \geq 8\%$ maqsadli darajasiga ($n=56$) etib bormaydi. Qon zardobidagi olingan natijalar statistik tahlil SPSS dasturida o’tkazildi.

Natijalar: Quydagi jadvalda 2-tur qandli diabet bemorlarda korrelyatsion tahlili.

Ko’rsatkichlar	HbA1c $\leq 8\%$, r	P	HbA1c $\geq 8\%$, r	P
Fibrinogen, g/l	0,345	0,003	0,256	0,056
Umumiy KFK, Ed/l	-0,083	0,482	-0,281	0,036
Interleykin-6, pg/ml	0,269	0,02	0,222	0,1
C-reaktiv oqsili, mg/l	0,068	0,563	0,348	0,009
Apo-(A1), mg/dl	0,189	0,106	-0,364	0,006
Apo-(B), mg/dl	0,22	0,06	-0,367	0,005
Lipoprotein hajm indeksi	0,027	0,821	0,272	0,043

Izoh: HbA1c maqsadli darajasiga erishgan guruhda fibrinogen ($p = 0.003$) va C-reaktiv oqsili ($p = 0.003$) bilan ijobiy bog’liqlik aniqlandi. $HbA1c \geq 8\%$ bo’lgan bemorlarda fibrinogen darajasi ($p = 0.056$), C-reaktiv oqsili ($p = 0.009$) va LP hajmi indeksi LF ($p = 0.01$) bilan kamroq aniqlangan ($p = 0.02$), ammo statistik jihatdan ishonchli bog’liqlik. Erishilgan $HbA1c \geq 8\%$ darajasiga ega bo’lgan kichik guruhdagi salbiy korrelyatsiya umumiy KFK ($p = 0.036$), apo (A) ($p = 0.006$) va apo-(B) ($p = 0.005$) bilan bog’liqligi aniqlanadi

Xulosa

2-tur qandli diabet va yurak yetishmovchiligi birgalikda kechgan bemorlarda kardiometabolik yallig'lanish markerlari va lipid transport tiziminng oqsillari va zarrachalari darajasi yuqori bo'lib, bu yurak asoratlarini erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega.